

Tog' va tekislikning o'zaro bir butunligi (Nurota tizmasi misolida)**G'o'dalov Mirkomil Ravshanovich***JdPI, dotsent*MirkomilGudalov78@gmail.com**Turg'unov Alisher Eliboy o'g'li***JDPI 2-magistr***ARTICLE INFO.****Kalit so'zlar:****Annotation:**

Mazkur maqolada Nurota tizmasi tog' va tog' oldi tekisliklarini o'zaro aloqasi ilmiy va amaliy jihatdan o'r ganilgan.

Nurota tizmasi, tog' va tog' oldi tekisliklari, ilmiy-amaliy yechim, Hayotboshi cho'qqisi, geopolitsiya, qo'shaloq geokompleks, bir butunlik.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Hozirgi vaqtida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tabiatni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish muammosi juda serqirra bo'lib, uning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, yuridik, tarbiyaviy va boshqa tomonlari bo'lishiga qaramay, u asosan bir butun – majmuali kompleks muammo hisoblanadi. Bu muammoning kelib chiqish omillarini juda ko'p fanlar (ijtimoiy, texnik, tabiiy va boshqalar) sistemasi ishlab chiqishi lozim bo'ladi. Ma'lumki, bundagi asosiy ilmiy tadqiqot ob'ekti tabiiy muhitdir, binobarin, barcha ilmiy va ilmiy-texnik ishlanmalar avvalo tabiiy fanlarning ilmiy xulosalari yakuniga tayanishi kerak. Lekin bu muammolar, eng avval yagona tabiiy-ilmiy nazariyaga muhtojdir. Bunday nazariyani ishlab chiqishga, bizningcha, ko'pgina tabiiy fanlar, jumladan kimyo, biologiya, geologiya, tuproqshunoslik, meteorologiya, tabiiy geografiya va boshqa fanlar o'z hissalarini qo'shishi kerak. Lekin bunda davrimizning fundamental va konsturktiv faniga aylanib borayotgan hozirgi zamon geografiyasini yetakchi rol o'ynashi lozim. Chunki, boshqa tabiiy fanlar tabiatning ayrim komponentlarini (tog' jinslari, suv, tuproq, o'simlik, tirik organizmlar, atmosfera havosi va hokazolarni) tadqiq etsa, geografiya fani esa bu barcha masalalarni bir butun holatda tabiiy-hududiy komplekslar yoki geosistemalarni tadqiq etadi va ularning paydo bo'lishi, rivojlanishi, hududiy tarqalishi qonuniyatlarini kashf etadi va bu sistemalarni oqilona boshqarish yo'llarini aniqlaydi. Shuning uchun ham tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish muammosini kompleks tadqiq qilish hozirgi zamon geografiyasining dolzarb masalasidir.

Shunday muammolar borki, uni hal qilish tubdan boshqacha yondoshishni talab etadi. Gap shundaki, XX asrning oxiriga kelib, O'rta Osiyo respublikalari xalq xo'jaligini rivojlantirishga yangicha yondoshishga va yangicha ilmiy-amaliy yechimlarga muhtoj bo'lib qoldi. Shu, jumladan tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan to'g'ri, oqilona foydalanishga tegishlidir. Orol dengizi fojiasi va uning oqibatlari, shuningdek, kuchli sel oqimlarining, surilmalar, qurg'oqchilik, cho'llanish jarayonlari va boshqa tabiiy

ofatlarning keng tarqalishi, mintaqada hozirgi vaqtgagi ekologik sharoit buzilishning isbotidir. Vujudga kelgan ekologik vaziyatni to‘g‘ri anglash va bu ahvolni tubdan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim shart, tog‘ va tekislik o‘rtasidagi tabiiy aloqalarning o‘zgarishi va uning natijasida landshaftlar gidrogeologik va gidrologik holatining yomonlashuvni, biologik mahsuldarlikning kamayishi kabi boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi hamda pirovardida mahalliy xalq hayotining yashash darajasi, hayot tarziga ta’sir etishi to‘g‘risidagi bilimlarni tushunish va bu tushunchalarni chuqur tahlil qilish lozimdir. Bu jarayonlarni to‘g‘ri anglash uchun eng yaxshi misol – Orol dengizi fojiasidir. Biz hozir aniq tushunib angladikki, Orol dengizi suv yig‘uvchi dengiz sifatida, ko‘lamida kelishilgan chora-tadbirlar uni yo‘q bo‘lib ketishdan saqlab qolishi mumkin edi.

Bu masalani amalga oshirish uchun O‘rtta Osiyo tekislik qismining va uni o‘rab turgan tog‘lari bilan o‘zaro aloqalar bog‘liqligi xususiyatini bilish, ya’ni bu ikki tabiiy sistemalar tog‘ va tekislik o‘rtasidagi modda va energiya oqimlari almashishi holatining mohiyatini o‘rganish kerak. Bir qarashda bu oddiy tabiiy jarayondek bo‘lib ko‘rinadi, lekin aslida bu jarayon juda murakkabdir.

Tog‘ va tog‘ oldi tekisliklari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni Nurota tizmasi misolida o‘rganilmoqda. Nurota tizmasi sharqdan-g‘arba tomon 264 km masofaga cho‘zilgan bo‘lib, eng baland nuqtasi Uxum va Majurum soylar boshlanadigan Hayotboshi cho‘qqisi (2169 m) hisoblanadi. Hayotboshi cho‘qqisi tog‘ning markaziy qismida joylashgan. Tog‘ning markaziy qismi, sharqiy va g‘arbiy qismlarga nisbatan baland bo‘lib, o‘rtacha balandligi 1750 m ni tashkil qiladi. Bu qismda Hayotboshi (2169 m) cho‘qqisidan tashqari, Katta Fozilmon (2134 m), Qarchig‘ay (2105 m) kabi cho‘qqilar ham bor. G‘arbiy chekkasi Nurota shahri bir kenglikda mutloq balandligi 400-450 metrga yetadigan tepaliklarga aylanadi va astasekin Qizilqum cho‘liga qo‘silib ketadi. Sharqiy qanoti esa 650-700 m balandlikdagi past tog‘ (Yetimtog‘) ko‘rinishida Jizzax shahriga kirib boradi.

Nurota tizmasi tog‘ va unga tutash tekisliklarni o‘zaro bog‘liq va o‘zaro ta’sir qiluvchi, to‘g‘ri va teskari aloqa qiluvchi kanallar bilan bog‘liq bo‘lgan bir butun yaxlit tabiiy tizim sifatida o‘rganilgan. Unda tabiiy tizimlarning o‘zaro ta’sir etuvchi mexanizmlari o‘rnatalgan. Shu bilan birga birinchi marotaba Nurota tizmasi tog‘ va tekisliklari o‘rtasidagi modda va energiyaning aylanib yurish qonuniyati aniqlangan va uning miqdoriy va sifatiy tomonlarini hisoblab chiqishga harakat qilingan. Bu tekshirishdan olingan natijalar Nurota tizmasida atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy sharoitdan hamda tabiiy boyliklardan ilmiy-amaliy va oqilona foydalanishni aniqlashtirish, ilmiy asoslab berish uchun xizmat qiladi. Nurota tizmasida tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishni boshqarish maqsadlarini hal qilish uchun, tog‘ va tekislik landshaftlarini bir butun tizim, ya’ni o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sir tizimi sifatida o‘rganish uchun–nazariy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

So‘ngi yillarda yer haqidagi fanlar tomonidan – tabiiy jarayonlarning dinamikasi bo‘yicha to‘plangan juda katta hajmdagi ma’lumotlar, landshaftlar ning taraqqiyotini belgilovchi murakkab o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro ta’sirlarni (ya’ni tabiiy sistemalarning o‘zaro bog‘liqliklarini) tahlil qilishdagi tekshirishlarda va bu ma’lumotlarni umumlashtirishda noan’anaviy yondashishni talab qiladi. Bu masalalar ilmiy tekshirishlarning kelajakda yanada rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega, shu bilan birga tabiiy sharoitdan va tabiiy boyliklardan maqsadga muvofiq foydalanishni ishlab chiqish uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Hozirga qadar bizda va xorijiy mamlakatlarda ham e’lon qilingan ekologik, geografik, iqtisodiy va boshqa ilmiy ishlanmalarda tog‘ va unga tutash tekislik landshaftlari bir-biridan ajratilgan alohida holatda qaraladi. Ammo, hozirgi vaqtida tog‘ va tekisliklarning o‘zaro ta’siri va o‘zaro aloqa jarayonlarini (ya’ni bir butunligini) maxsus tekshirish zarurati sezilmoqda. Ular turli fanlarning taraqqiy etish mantiqidan kelib chiqmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tog‘li rayonlar ochiq tizimlar bo‘lib, ularni o‘rab turuvchi atrofdagi hududlar – tekisliklar bilan faol va doimo o‘zaro ta’sirdadir. Keyingi vaqtarda tog‘ va tekislik mintaqalari o‘rtasidagi aloqalarning murakkabligini va muhimligini tushunish sezilarli darajada dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Chunki bu o‘zaro ta’sir, ya’ni o‘zaro bog‘liqlik, o‘ziga nafaqat ekologik va tabiiy geografik, balki, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammoli masalalarni ham qamrab oladi. Shuning uchun ham bu tizimlarning aloqalari haqida orttirgan tajribalarimizni va bilimlarimizni

ko‘paytirish uchun unga alohida e’tibor berish kerak, modomiki, bu bir suv yig‘uvchi havzada barcha aholi huquqini himoya qilishga qo‘srimcha imkoniyatlarni beradi. Turli tabiiy-geografik zonalarni birlashtiruvchi suv havzalarini boshqarishning integral siyosatini qo‘llash zarur.

Ekologlar, geograflar va bir-biriga yaqin bo‘lgan boshqa bilim sohalari tomonidan to‘plangan hamda ustozimning ko‘p yillik tekshirishlari va to‘plangan materiallari asosida geopara - «tog‘-tekislik» qo‘shaloq geokomplekslari» haqida tabiiy-geografik tushuncha ishlab chiqilgan va taklif etilgan. Geopara - qo‘shaloq tabiiy geografik komplekslar turli darajada «baland tog‘-tekislik», «o‘rtacha tog‘-tekisliklar», «past tog‘-tekisliklar», qo‘sni tabiiy-hududiy komplekslar tizimi bo‘lib, kelib chiqishining umumiyligi hozirgi modda va energiya almashinuvni jarayonlarining umumiyligi bilan bog‘langandir. Shunday qilib, hozirgi vaqtida funksional va genetik jihatdan umumiy bo‘lgan, tog‘ va unga bog‘liq bo‘lgan tekislik landshaftlarining doimiy va uzoq vaqtidan buyon ularning o‘zaro ta’siri sababli real mavjud bo‘lgan, lekin hozirga qadar o‘rganilmagan hodisa-ikki xil tabiiy tuzilmalarning bir butunlikda o‘rganishlarining mexanizmlarini ochib berish zarur bo‘lib qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Alibekov L.A., Nishonov S.A. Prirodnye usloviya i resursy Djizakskoy oblasti. «O’zbekiston», 1978 y
2. Alibekov L.A. – Landshaftlarni muhofaza qilish. –T., «Fan», 1985 y
3. Hakimov Q.M., G‘o‘dalov M.R. Jizzax viloyati geografiyasi. Jizzax, «Sangzor» 2006 y
4. G‘o‘dalov M.R., Yaxshiboyeva F. Suv resurslaridan rasional foydalanish (Zomin tumani misolida). –T., 2010 y
5. G‘o‘dalov M.R., Muxamedov O.L. Tabiatni muhofaza qilish. Muammo va yechimlar. Monografiya. «Ziyo nashr-matbaa»2021 y
6. Gudalov M.R., Janizakov I.S., Janizaqova G.M., Ways to develop Ecotourism in The Molguzar Mountains. The American Journal of applied Science. 2020, 11/10.